



TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

J.A.Hamidjonova,

NamDPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada tibbiyot terminologiyasining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti yoritiladi. Qadimgi yunon tibbiy an'analari, Gippokrat maktabi, Aleksandriya olimlarining neologizmlar yaratishdagi roli, arab tibbiyotining, xususan Ibn Sino faoliyatining terminologiyaga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, lotin va milliy tillarning tibbiy leksika rivojiga qo'shgan hissasi, neoklassitsizmlarning shakllanishi hamda hozirgi zamon tibbiyot terminologiyasining murakkab makrostrukturasi haqida ma'lumot beriladi. Maqola tibbiyot tilining fanlararo ahamiyatini va termin yaratish jarayonining lingvistik xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, Gippokrat to'plami, Aleksandriya maktabi, lotin tili, arab tibbiyoti, Ibn Sino, neologizm, neoklassitsizm, internatsionalizm, termin yasash.

Abstract: The article examines the formation and historical development of medical terminology. It explores ancient Greek medical traditions, the Hippocratic corpus, and the role of the Alexandrian school in creating new scientific terms. The influence of Arabic medical scholarship—especially the contributions of Avicenna on the evolution of medical nomenclature is analyzed. The study also addresses the transition from Latin to national languages, the emergence of neoclassicisms, and the complex macrostructure of modern medical terminology. The article highlights the interdisciplinary importance of medical language and the linguistic mechanisms involved in term formation.

Keywords: medical terminology, Hippocratic corpus, Alexandrian school, Latin language, Arabic medicine, Avicenna, neologism, neoclassicism, internationalism, term formation.



Tibbiyot tili boy termin tizimiga ega. Olimlarning ushbu ilmiy sohaga bo'lgan qiziqishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Ma'lumki, dastlabki tibbiy matnlar Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Qadimgi yunon tibbiyoti professional bilim sohasi sifatida eng yuqori darajadagi mustaqillikka erishgan. Qadimgi yunon tabiblarining asarlarida qadimgi tibbiyot tomonidan yig'ilgan bilimlar jamlangan. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbalardan biri bu Alkmeon Krotonskiyga tegishli bo'lgan bir nechta tibbiy matn parchalari hisoblanadi. O'sha davrga oid 100 dan ortiq tibbiy asarlar «Gippokrat to'plami» («Corpus Hippocraticum») nomi bilan jamlangan. Ushbu asarlar qadim zamonning eng buyuk tabibi Gippokratga tegishli deb hisoblanadi. «Gippokrat to'plami»ga faqat Gippokrat va uning shogirdlarining emas, balki qadimgi yunon tibbiyotining boshqa yo'nalishlariga mansub bo'lgan tabiblarning ham asarlari kiritilgan. Aynan «Gippokrat to'plami»dan Yevropa tibbiyoti va tibbiyot terminologiyasi tarixi boshlanadi.¹

Gippokrat va uning izdoshlari ko'p avlod xalq tabiblarining qo'llab kelgan tibbiy leksikasini meros qilib olganlar; bu haqda ma'lum darajada Gomerining «Iliada» asaridan ham xulosa chiqarish mumkin. Gomer epik asarida Gippokrat foydalangan va hozirgi zamon shifokorlari ham hali-hanuz ishlatadigan ko'plab anatomik va nozologik (kasalliklarni tasniflovchi) atamalar mavjud. Asosan yunon xalq so'zlashuv nutqidan tibbiyotga oid predmetlar va hodisalar nomi uchun so'zlar olingan. Faqat shifokorlar tomonidan ishlatiladigan, zamonaviy termin tushunchasiga mos maxsus tibbiy so'zlar «Gippokrat to'plami»da nisbatan kam. Unda bir xil narsa ko'pincha turli so'zlar bilan ifodalangan. To'plamdagi asosiy til boyligi kasalliklar va ularning simptomlari nomlari bilan bog'liq, anatomik leksika esa ancha kamroq uchraydi.²

Ellinizm davri boshlanishi bilan ilmiy tibbiyot markazi Aleksandriyaga ko'chdi. Bu yerda butun dunyoga mashhur bo'lgan va tibbiyot rivojini yuzlab yillar oldindan belgilab bergan Aleksandriya tibbiyot maktabi shakllandi. Bu maktab,

¹ Tibbiyot ensiklopediyasi: <http://dic.academic.ru/contents.nsf/enmedicine>

² Г.В. Архангельский О «Гиппократовом Сборнике». М.: Клиническая медицина, 1991. 248 с.



asosan, ikki buyuk shifokor Gerofil va Erazistratning faoliyati bilan mashhur bo'ldi. Ular tibbiy, ayniqsa, anatomik terminologiyada muhim iz qoldirishgan. Agar undan oldingi davrda tibbiy leksika asosan og'zaki tildan olingan so'zlar hisobiga boyitilgan bo'lsa, aleksandriyaliklar esa dadil tarzda yangi so'zlarni sun'iy, maxsus yaratilgan nomlarni (neologizmlar) joriy qilishgan.

Aleksandriyaliklar tibbiy tilni tartibga solish va normallashtirish borasida katta hissa qo'shdilar. Aynan ular tufayli tibbiyot tili izchillik va ilmiy aniqlik xususiyatlariga ega bo'ldi, bu esa hatto zamonaviy fan nuqtayi nazaridan ham sezilarli edi.

Qadimgi dunyo inqirozigacha bo'lgan davrda yunon tili tibbiyotning xalqaro tili sifatida faoliyat ko'rsatgan va turli etnik guruhlariga mansub shifokorlar o'rtasida kasbiy muloqot vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda, Rimning Yunoniston va uning sobiq hududlari ustidan hukmronlik o'rnatganiga qaramay, lotin tili tibbiy-biologik leksikaning rivojlanishiga deyarli ta'sir ko'rsatmagan.

Lotin tili butun tarix davomida yunon tilining kuchli ta'siri ostida bo'lgan. Rimliklarning mavjud tibbiy va biologik bilimlari yunon tibbiyoti va tabiiy fanlari, ayniqsa tirik tabiat haqidagi bilimlar bilan raqobatlasha olmagan. Asliy lotin tiliga mansub maxsus leksika, xususan anatomik terminologiya haqida bir oz tasavvurga faylasuf-shoir Lukretsiy Kar tomonidan yozilgan «Narsalar tabiati haqida» («De rerum natura») asari orqali ega bo'lish mumkin. U yunonlarning tabiiy-ilmiy qarashlarini lotin tilida bayon qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Inson tanasi tuzilishini tasvirlar ekan, Lukretsiy adabiy lotin tili so'zlari bilan birga, yunon tilidan o'zlashtirilgan va lotinlashtirilgan so'zlardan ham foydalangan.³

Rimda faoliyat yuritgan eng mashhur shifokorlardan biri, Klavdiy Galenning tibbiyot va falsafaga bo'lgan qiziqishlari har doim filologik (tilshunoslik) izlanishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Galen Gippokrat asarlariga lug'at va sharhlar yozgan.

U ko'plab yangi yunoncha atamalarni kiritgan, eski so'zlarning ma'nolarini aniqlashtirgan, o'z zamondoshlari uchun deyarli unutilgan yoki tushunarsiz bo'lib

³ Tibbiyot ensiklopediyasi: <http://dic.academic.ru/contents.nsf/encmedicine>



qolgan gippokratlik atamalarining ba'zilarini qayta tiklagan. Galen so'zning tuzilishi va ichki shakli uning ifodalovchi predmetiga to'g'ri yo'naltiruvchi bo'lishi, anatomik nomlar esa organning bajaradigan funksiyasi bilan bog'liq bo'lishi lozim, deb hisoblagan. U har bir maxsus so'zning aniq, bir ma'noli ishlatilishi va talqin qilinishini ayniqsa muhim deb bilgan.

Galenning ilmiy tilni shakllantirishdagi yondashuvida yangi davr faniga, jumladan tibbiyotga qo'yilgan terminologik talablarning asosiy tamoyillari mujassam edi.⁴

Feodalizm davridagi tibbiyotning eng yuksak yutug'i Eron va Markaziy Osiyoni ham qamrab olgan arab-sharq xalqlari tibbiyotidir. Arab tilidagi tibbiyotning tarixiy xizmatlaridan biri antik dunyo tibbiyotining bebaho merosini asrab qolganligidir.

IX–X asrlarda arab tili lotin va yunon tillariga sezilarli darajada raqobatchi va muqobil tilga aylana boshladi. Gippokrat va Galenning deyarli barcha asarlari yunon tilidan arab tiliga tarjima qilindi. Shu asosda arab tilidagi tibbiy adabiyot shakllana boshladi. Dastlab bu yunon asarlarining kompilyativ (ya'ni, qayta ishlangan) shakllari edi, biroq vaqt o'tishi bilan arab shifokorlari tomonidan yozilgan mustaqil, yirik ilmiy asarlar ham yuzaga keldi. Bular orasida eng mashhurlari Abu Bakr Roziy va ayniqsa Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) asarlaridir. Ularning ilmiy ishlari orqali arab tibbiyot terminologiyasi mustahkamlandi.

XIV asrdan boshlab arab tibbiyotining ta'siri susayishni boshladi, biroq shu davrda Yevropa tibbiyotining rivojlanishiga katta to'siq bo'lgan holat yuzaga keldi: terminologik chalkashlik nihoyatda kuchli edi. Tibbiy leksika lotinlashtirilgan arabcha so'zlar, ibroniycha (yahudiycha) atamalar, arablashtirilgan yunoncha so'zlar va noto'g'ri tarjima qilingan, ko'pincha mazmuni buzilgan tushunchalardan iborat murakkab aralashmadan iborat edi. Natijada minglab sinonimlar paydo bo'ldi. Bu holat yevropalik tibbiyot olimlari uchun «terminologik bo'g'ilish»

⁴ П.П. Гайденоко Античная философия. Энциклопедический словарь. М.: Прогресс-Традиция, 2008. 896б.



xavfini tug'dirgan. Shu sababli ba'zi olimlar ilmiy ishlarda va ma'ruzalar vaqtida milliy tillarga o'tishga urinishgan.

XIV asr oxiridan boshlab milliy tillarni shakllantirish jarayoni boshlandi. Katta geografik kashfiyotlar davrida yevropaliklar ilgari noma'lum xalqlar va ularning tillari bilan tanishdilar, yangi tillarning tavsiflari yozildi. G'arbiy Yevropada lotin tili hanuzgacha fan, ta'lim va ibodat tili sifatida o'z mavqeini saqlab qolgan bo'lsa-da, milliy tillarning mavqei kuchaya boshladi. Bu tillar yangi ijtimoiy funksiyalarni bajara boshladi va yuqori maqomga ega bo'ldi. Lotin (G'arbda) va eski slavyan (Sharqda) kabi o'lik adabiy tillar bilan birga har bir xalqning o'z adabiy tili shakllandi.⁵

XVI asrda zamonaviy anatomiya asoschisi bo'lgan Andreas Vezaliy lotin tilidagi anatomik terminologiyaga ulkan hissa qo'shdi. U asarlarida Tsels tomonidan kiritilgan nomlarni asos qilib oldi, anatomik terminologiyani yagona, izchil holatga keltirdi, o'rta asrlarga xos "varvarizm"larni butkul chiqarib tashladi. Shu bilan birga u grekcha so'zlar (gretsizmlar)ni imkon qadar qisqartirdi, bu esa uning Galen tibbiyotiga nisbatan tanqidiy munosabati bilan izohlanadi. Biroq bu islohotning salbiy tomoni ham bo'ldi: ba'zi hollarda Vezaliy yunon tibbiyotiga oid aniq, qisqa nomlarni ko'p so'zli, ta'riflovchi lotin terminlariga almashtirdi. Ba'zida u Tsels kiritgan nomni boshqa anatomik obyektga nisbatan ishlatgan. Bu kabi noaniqliklar ba'zi holatlarda terminologiyaning grekcha va "varvar" shakllariga qaytishiga sabab bo'ldi. Grekcha atamalarni saqlab qolish tarafdori bo'lganlar orasida tilni tozalashga u qadar intilmagan fransuz tibbiyot maktabi vakillari mavjud edi.

XVII asrdagi ilmiy inqilob tibbiyot fanining jadal rivojlanishini boshlab berdi. Yangi ilmiy yo'nalishlar shakllandi, bu esa ko'plab yangi terminlarning yaratilishiga olib keldi. Uyg'onish davrining so'nggi bosqichlaridan boshlab tibbiyot tilining milliy tillarga moslashuvi asta-sekinlik bilan yuz bera boshladi. Masalan, fransuz jarrohi Ambruaz Pare an'anani buzib, o'z ilmiy asarlarini fransuz tilida yozgan. Shunga qaramay, XVIII asrda lotin tili hali ham biologiya va

⁵ Ф. М. Березин История лингвистических учений. М.: Высшая школа, 1975. 304 с.



tibbiyotning xalqaro tili bo'lib qolgan edi: ilmiy asarlar shu tilda yozilgan, ta'lim va ilmiy munozaralar ham lotin tilida olib borilgan. Biroq bu til milliy tillar bilan murosali ravishda yonma-yon mavjud bo'lib, har bir mamlakatda o'z tiliga teng maqomdagi ilmiy vosita sifatida qaraldi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, vaziyat tubdan o'zgaradi. Lotin tili butunlay o'z mavqeini yo'qotadi va uning o'rnini milliy tillar egallay boshlaydi. Endilikda ular ilmiy yozma va og'zaki muloqot vositasiga aylanadi. Lotin tilida esa faqat nomlash funksiyasi – ya'ni, ayrim tibbiy-biologik klassifikatsiyalardagi obyektlarni belgilash vazifasi saqlanib qoladi.⁶ Bu holat Yevropa va Amerika mintaqalariga xos bo'lib, bu yerda qadimdan yunon va lotin tillari tibbiy-biologik leksikani boyitishning asosiy manbalari sifatida tan olingan.

Tayyor shaklda klassik tillar lug'atlaridan olingan nomlar bilan bir qatorda, olimlar tomonidan sun'iy yaratilgan yangi so'zlar – neoklassitsizmlar (neoyunoncha va neolotinja atamalar) keng tarqala boshladi. Ular klassik tillarning leksik va so'z yasovchi materiallari asosida yaratilgan. Masalan, rus tilidagi ba'zi misollar:

- «ортопедия» (ingl. *orthop(a)edy*, o'zb. *ortopediya*) – yunoncha *orthos* – to'g'ri, to'g'rilovchi + *paideia* – tarbiya, ta'lim;
- «лейкемия» (ingl. *Leukaemia*, o'zb. *Leykemiya*, oqqon) – yunoncha *leukos* – oq + *haima* – qon;
- «амилоид» (ingl. *Amyloid*, o'zb. *amiloid*) – *amylon* – kraxmal + *eidos* – ko'rinish;
- «аллергия» (ingl. *Allergy*, o'zb. *allergiya*) – *allos* – boshqa + *ergon* – harakat, ta'sir;
- «фагоцит» (ingl. *Phagocyte*, o'zb. *.fagosit*) – *phagos* – yutuvchi + *kytos* – hujayra, idish.

Bu neoklassitsizmlarning tilshunoslikda qanday ko'rinish olgani turlicha bo'lgan: ba'zilari lotin tilida, boshqalari esa milliy tillarda shakllangan, ko'pincha esa ikkalasi birga mavjud bo'lgan. Grek-lotin etimologiyasi tufayli bu atamalar turli

⁶ <http://www.curemed.ru/medarticle/articles/33215.htm>



tillarning terminologiyasiga oson kirib borgan va fonetik-morfologik tizimlarga moslashib, xalqaro atamalarga – internatsionalizmlarga aylangan.

G'arbda zamonaviy (klinika yo'nalishidagi) tibbiyot vujudga kelgach, shifokorlar o'z kasbining to'liq tarixini tiklashga ehtiyoj sezishdi. Bu tarix antik davrdan boshlab Yevropadagi tibbiy bilimlar rivojining barcha bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak edi. Shu tariqa tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida shakllandi – ya'ni, uni bevosita shifokorlarning o'zlari yozdi. Buning asosiy mavzulari – tibbiy bilimlarning rivojlanishi, buyuk shifokorlar va tibbiy maktablar faoliyati, tibbiy texnika va davolash usullarining evolyutsiyasi bo'ldi.

XXI asrda tibbiy terminologiya mazmunan va tushunchaviy jihatdan eng keng va murakkab terminologik tizimlardan biridir. Ilmiy tibbiyotda boshqa fanlarga oid (biologiya, kimyo, fizika, mikrobiologiya, radiologiya, genetika, antropologiya, psixologiya, kibernetika va boshqalar) atamalar ham ishlatiladi. Ularning umumiy soni bir necha yuz ming so'z va birikmadan iborat. Shuningdek, sinonimlar soni juda ko'p bo'lib, ayrim tibbiyot sohalarida ular umumiy terminologik zaxiraning 25–40 foizini tashkil qiladi. Masalan, Xalqaro kasalliklar tasnifi (ICD) 50 000 dan ortiq kasallik nomlarini keltiradi, holbuki amalda ularning nozologik shakllari ancha kam. Dori vositalari nomlari (sinonimlari bilan birga) 80 000 dan ortiq. Tibbiyot va biologik axborotlarning turli tillarda keskin ortib borishi bilan birga, har yili tibbiyot adabiyotida mingdan ortiq yangi terminlar paydo bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida aytish joizki, tibbiy terminlar nafaqat kasbiy kommunikatsiya vositasi, balki tilshunoslikda leksik-semantik, strukturaviy va tarixiy-etimologik tahlil uchun keng imkoniyatlar ochuvchi ilmiy manbadir. Ularning shakllanishini o'rganish tibbiy tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika, til madaniyati va fanlararo kommunikatsiya yo'nalishlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г.В. Архангельский О «Гиппократовом Сборнике». М.: Клиническая медицина, 1991. 248 с.
2. П.П. Гайденко Античная философия. Энциклопедический словарь. М.: Прогресс-Традиция, 2008. 896б.
3. Ф. М. Березин История лингвистических учений. М.: Высшая школа, 1975. 304 с.
4. Tibbiyot ensiklopediyasi: <http://dic.academic.ru/contents.nsf/encmedicine>
5. <http://www.curemed.ru/medarticle/articles/33215.htm>